



## **СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

**77-Й МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**«Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации»**

ПОД РЕДАКЦИЕЙ  
ПРОФЕССОРА РИЗАЕВА Ж.А.

**САМАРКАНД 2023**

Научное издание

77-я Международная научно-практическая конференция

«Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации»

Сборник тезисов: / Под редакцией: профессора Ризаева Ж.А.

Самарканд, 2023. – 584 с.

*Подготовлено на основе материалов, присланных авторами.*

*Редакция не несет ответственности за содержание опубликованной информации.*

### Редакционная коллегия:

Главный редактор

**Ризаев Жасур Алимджанович**

Заместитель главного редактора

**Зиядуллаев Шухрат Худайбердиевич**

Ответственный секретарь

**Мансуров Джалолидин Шамсидинович**

**Шаханова Шахноза Шавкатовна**

Редакционная коллегия

**Алиев Мансур Абдухоликович**

**Джурабекова Азиза Тахировна**

**Ким Антонина Амуроовна**

**Махмудова Азиза Нугмановна**

**Назарова Нодира Шариповна**

**Орипов Фирдавс Суръатович**

**Самиева Гульноза Уткуровна**

**Ташкенбаева Элеонора Негматовна**

**Холмуродова Диляфруз Кувватовна**

**Шавази Наргиз Нуралиевна**

**Худоярова Дилдора Рахимовна**

**Шодикулова Гуландом Зикрияевна**

Сборник материалов 77-й Международной научно-практической конференции «Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации» представляет собой ценный исследовательский ресурс. В этом сборнике собраны актуальные работы, посвященные различным аспектам медицины и фармации. Авторы из Узбекистана, России, Украины, Казахстана, Беларуси представляют свои научные и практические достижения в области фундаментальной и прикладной медицины, включая новые методы диагностики, лечения и профилактики различных заболеваний. Основываясь на современных исследованиях, сборник предлагает уникальный обзор прогресса в области медицины и фармации, обогащая наше понимание и способствуя развитию здравоохранения и научного сообщества.



Дорогие студенты,  
уважаемые коллеги, друзья!

Я рад приветствовать всех вас на 77-ой Международной научно-практической конференции студентов и молодых учёных «Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации».

Самаркандский государственный медицинский университет уже в 77-й раз делает все возможное, чтобы предложить студентам и молодым учёным медицинских вузов уникальную возможность международного научного обмена!

В очередной раз мы стремимся предоставить молодым и талантливым исследователям со всего мира возможность представить свои достижения, поделиться своими идеями и взглядами, принять участие в тематических секциях, где они могут встретиться с другими одаренными и увлеченными молодыми исследователями, которые разделяют их увлечение медицинскими знаниями.

Самаркандский государственный медицинский университет считается лучшим медицинским университетом Узбекистана. Профессорско-преподавательский состав университета всегда шел в ногу с прогрессом, сочетая педагогическую и научно-исследовательскую деятельность, придавая университетскому образованию высокое значение, обеспечивая его широту, фундаментальность и компетентность.

Местом проведения Конференции является Самарканд, город, полный жизни, расположенный в самом сердце Великого Шелкового Пути, известный своей торговлей, промышленностью, бизнесом и, прежде всего, своими академическими традициями.

Пребывание вместе в чудесном городе Самарканде сделает конференцию еще более приятной.

Мои наилучшие пожелания успешной и плодотворной конференции!

С уважением, Жасур Алимжанович РИЗАЕВ,  
ректор СамГМУ, профессор.

**СОДЕРЖАНИЕ**  
**ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ МЕДИЦИНА**

Biologik faol kompleks birikmalarni tibbiyotdagi ahamiyati <i>Abdullayev Asliddin Shodi O'g'li</i>	54
Bronxial astma kasalligining yoshga va jinsga bog'liqligi va nafas olish va yurak urish sonidagi o'zgarishlar <i>Abdusaidova Charos Xusniddin qizi</i>	54
Reaksiya tezligiga temperaturaning ta'siri va uning tibbiyotda qo'llanilishi <i>Abdusalomova Farzona Orif qizi</i>	54
Kobalt mikroelementi yetishmasligida, jigaridagi o'zgarishlar oq kalamushlar misolida <i>Adxamov Asror Adxam o'gli</i>	55
Malonli dialdegid miqdori, antioksidant tizimi fermentlari superoksiddismutaza va katalaza faolligi <i>Allaberganov Muzaffar Yo'l dashbayevich</i>	55
Abu ali ibn sino va abu rayxon beruniyning davlat va jamiyatga qo'shgan hissasi va o'chmas meroslari <i>Amirova Shahnoza Mamasoli qizi, Nuriddinova Nasiba Uktam qizi</i>	56
Osteoporoz — suyaklarni qayta qurish biokimyosi <i>Ashirov Farruxbek Azamat o'g'li</i>	57
Maktab o'quvchilarining koronavirus pandemiyasi sharoitidagi fiziologik uyqu jarayonlari <i>Ashurboyev Farruxjon Alisher o'g'li</i>	57
Purin va pirimidin xalqlarini saqlagan dorivor moddalarning tibbiyotdagi o'rni <i>Ashurova Nafisa Damirovna</i>	58
Shifobaxsh zafaronning foydali jihatlari <i>Boyxonova Rayhona Sirojiddin qizi</i>	58
Jismoniy faoliyatning motor javob tezligiga ta'siri <i>Eshpulatov Farrux Abdusattor o'g'li</i>	59
O'smirlarda ovqatlanishning buzilishi <i>Eshpulatov Farrux Abdusattor o'g'li</i>	59
Qondagi leykositlar miqdorining yoshga qarab o'zgarishi va ahamiyati <i>Fayzullayeva Marjona</i>	60
Alloksan diabetli kalamushlarda gepatorenal sindromda xitozan hosilalari ta'siri <i>Hakimova Asila Ikrom qizi</i>	60
Ko'krak yoshidagi chaqaloqlarda sochning mikroelement tarkibini qrganish <i>Hazratova Fariza Ma'rupoyna</i>	61
Tibbiyotda zamonaliviy axborot texnologiyalarning ahamiyati va ijtimoiy etiket qoidalarini bilish <i>Ibragimov Dilshodbek Anvar o'g'li</i>	61
Organizmda yod tanqisligi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni o'rganish <i>Imomova Dinara Furkatovna, Odilova Sabrina Anvarovna</i>	62
Tibbiyot oliy ta'lrim muassasalarida axborot texnologiyasi fanidan amaliy darslarni tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanish <i>Karimova Asalxon Ramazonxon qizi</i>	62
Yadro kimyosining tibbiyotdagi ahamiyati <i>Mahmudjonova Gulsevar Rustam qizi</i>	63
Balog'at yoshidagi qizlar orasida uchraydigan algodismenoreya hodisasi va uning kechishi <i>Mamadiyorova Mashhura Mashrabovna</i>	63
Koronavirusni og'ir holatlarida o'zak hujayralar bilan davolash <i>Mamatqulov Ismoil G'aybulla o'g'li</i>	64
Kalla-miya jarohati muddati ahamiyati <i>Mardieva Ziyoda Aliserovna</i>	64
Giperetrofik kardiomipatiyalarda patologik o'zgarishlar <i>Mardonova Sojidabonu Otobek qizi</i>	65
Tibbiyotda fundamental fanlarni o'rganishda pirogov interaktiv anatomik stolining o'mni <i>Miraliyev Muhammad Shavkatovich</i>	65

## OSTEOPOROZ – SUYAKLARNI QAYTA QURISH BIOKIMYOSI

Ashirov Farruxbek Azamat o'g'li

Ilmiy rahbar: ass. Xalimova S.A.

Samarqand davlat tibbiyat universiteti, Samarqand, O'zbekiston

**Dolzarbliyi:** Tibbiyat sohasida osteoporozning uch xil turi farqlanadi, ularning barchasi kelib chiqishida alohida sabablarga ega: Qarilik osteoporoz – kalsiy yetishmaslikdan kelib chiqadi, suyak hujayralarining yangilanishi sekinlashadi. Bunday turdag'i osteoporoz ko'proq yoshi kattalarda uchraydi, ayniqsa 70 yoshdan oshganlarda. Ayollarda esa klimaks davridan keyin rivojlanadi. Ikkilamchi osteoporoz – bu turdag'i osteoporoz 5 % hollardagina uchraydi. Sababi, boshqa biror bir kasallikning suyak tizimiga salbiy ta'sir etishi yoki ma'lum bir turdag'i dori preparatlarini uzoq vaqt qabul qilishdir. Idiopatik osteoporoz – bu turdag'i osteoporoz yoshlari osteoporozi ham deyiladi. Chunki bu kasallik yosh bolalarda hatto yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham uchraydi. Bu kasallikning sababi hali aniq o'rganilmagan. Osteoporoz tashxisi JSSTning osteoporoz ta'rifiga ko'ra suyak zichligini tekshirishga asoslanadi va suyak zichligi past bo'lgan bemorlarda sinish xavfi ortadi. Biroq, ko'p ma'lumotlar to'plami shuni ko'rsatadiki, suyak belgilari suyak zichligidan qat'iy nazar suyak yo'qotilishini bashorat qiladi. Suyak aylanmasi ko'rsatkichlari ko'paygan odamlar suyak aylanma belgilari normal yoki past bo'lgan sub'ektlarga qaraganda tezroq suyakni yo'qotadilar. Suyak rezorbsiyasi belgilari suyak shakllanishi belgilardan ko'ra kelajakda suyak yo'qotilishining kuchli prognozi bo'lib ko'rindi va keksa yoshdagi ayollarda yosh ayollarga qaraganda korrelyatsiya kuchliroqdir.

**Maqsad:** Osteoporoz kasaligida suyak almashinuviga belgilarni topish va joriy qilish, sinish xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni aniqlash hamda davo usullarni topishda osteoporoz turlariga bog'liqligi to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilishdan iborat.

**Natijalari:** Suyakning biokimyoviy aylanma markerlari (BTM), suyak hosil bo'lishining markerlari va suyak rezorbsiyasi belgilaringning ikki guruhi mavjud.

Suyak almashinuvining analitik o'zgaruvchanligi BTM, o'lichash usuli va texnikning tajribasiga bog'liq. BTMlarni o'lichashning bir necha usullari mavjud (radioimmunoassay, immunoradiometrik tahlil, fermentativ immunoassay, kimilyuminesans). BTMlar dorilarning suyak almashinuviga metabolik ta'sirini aks ettiradi, adekvat dozani aniqlashga yordam beradi, davolash bilan bog'liq suyak mineral zichligi (BMD) o'sishini bashorat qiladi va davolash bilan bog'liq sinish xavfini kamaytiradi. Shunday qilib, BTMlar osteoporozni klinik davolashda yordam berish potentsialiga ega. Suyak almashinuvni yuqori bo'lgan erkaklarda BMD pastroq, shuningdek kortikal mikroarkitektura yomon. BTMlar sinish xavfi yuqori bo'lgan postmenopozal ayollarni aniqlashga yordam beradi va antirezorptiv davolanish bilan chidamlilikni yaxshilashi mumkin Ma'lumotlar yig'ish jarayonida jami 1302 bemor o'rganildi. O'rtacha yoshi 68,26 edi. O'rganilgan sub'ektlarning 75 % ayollar va 25 % erkaklar edi. Osteoporozning tarqalishi femur va lomber suyaklarning mineral zichligi (BMD) natijalarida mos ravishda 8,2 % va 11,8 % ni tashkil etdi. Femur va lomber BMD natijalariga ko'ra osteopeniyaning tarqalishi mos ravishda 50,2 % va 41,2 % ni tashkil etdi.

**Xulosa:** Suyakni qayta qurishning odatiy siklida birinchi navbatda osteoklastlar faollashadi, bu suyak rezorbsiyasiga olib keladi. Keyin, rezorbsiya «chuqurini» osteoblastlar prekursorlari egallagan qisqa «teskar» fazadan so'ng, suyak shakllanishi boshlanadi, chunki osteoblastlarning progressiv to'lqinlari hosil bo'ladi va yangi suyak matritsasini yotqizadi. Suyak hosil bo'lish bosqichi odatda rezorbsiya fazasidan ancha uzoq davom etganligi sababli, qayta qurish faolligining har qanday o'sishi suyakning aniq yo'qolishiga olib keladi. Ushbu jarayonning turli bosqichlarida prekursorlar, osteoklastlar va osteoblastlar turli xil «signal beruvchi» molekulalarni chiqarish orqali bir-biri bilan aloqa qiladilar.

## MAKTAB O'QUVCHILARINING KORONAVIRUS PANDEMIYASI SHARQITIDAGI FIZIOLOGIK UYQU JARAYONLARI

Ashurboyev Farruxjon Alisher o'g'li

Ilmiy rahbar: Salomova F.I., Xakimova D.S.

Toshkent tibbiyat akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

**Dolzarbliliyi.** Virus barcha davlatlarda aniqroq qilib ta'kidlaganda, butun dunyoda pandemiya vaziyatini yuzaga keltirdi va buning natijasida ko'plab muassasalar qatori umumiyo'yta ta'lim maktablari ham birdan ta'lim davomiyligini masafaviy tarzga o'tkazish hamda deyarli barcha bolalarning hech qayerga chiqmasdan faqat uuda dars mashg'ulotlarini davom ettirishni taqozo etdi. Aniq ma'lumot sifatida shuni taqdim etish mumkinki, 188 mamlakatlardagi bolalar va o'smirlarga ta'sir ko'rsatadigan maktablarni yopish bo'yicha umum milliy choralar ko'rildi. Bu esa aholining barcha qatlamiga kun tartibiga hamda salomatlik holatiga ma'lum bir darajada salbiy tarzda ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, COVID-19 pandemiyasini tarixda ta'lim tizimlarining eng katta to'xtatilishiga olib keldi va deyarli 190 milliard o'quvchiga ta'sir ko'rsatdi [1]. Bolalar va o'smirlar, shuningdek, ularning yoshiga va COVID-19ga qanday ta'sir qilishiga va kasallikning oldini olish choradibirlariga qarab, muayyan qiyinchiliklarga duch kelishadi.

**Maqsad va vazifalar.** Karantinda o'smirlarning kun tartibining asosiy qismi bo'lgan uyqu bilan bog'liq bo'lgan va salomatligida kuzatilgan o'zgarishlarni gigiyenik va statistik baho berish. Pandemiya davrda o'smirlarning uyqu gigiyenasini normallashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish.

**Tekshirish ob'ekti va usullari.** Toshkent viloyati Angren

shahri 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning kun tartibi va salomatlik holatini anketa so'rovnomasi asosida baholandi. So'rovnomada 87 nafr o'g'il bolalar (O'B) va 116 nafr qiz bolalar (QB) jami 203 nafr maktab o'quvchilaridan kun tartibi hamda salomatlik holati bo'yicha yozma anketa savolnomalariga javoblar qabul qilinib, tahlil qilindi.

**Natijalar.** Normal uyqu kun tartibining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va aqliy rivojlanish uchun zarurdir. Normal uyquga bo'lgan ehtiyoj yoshga qarab o'zgarib boradi [4]. Bolalar va o'smirlarning karantin vaqtidagi uyqu vaqtleri ham alohida o'rganilib tahlil etildi. O'quvchilarning 5% i 3-4 soat, 5% i 5-6 soat, 41% i 7-8 soat, 38% i 9-10 soat va 11% i 11-13 soat uyquda bo'lGANANI aniqlandi (1-rasm). Albatta pandemiya munosabati bilan barcha bolalar uuda bo'liganligini hisobga olsa, ularning uyqulari pandemiya bo'liganligini qarabga qaraganda ancha meyorllashganligi, ya'ni barqarorlashganligini ko'rish mumkin. Karantin paytida ko'chada do'star bilan o'ynash va ko'chaga chiqishning kamaytrilganligi, dars mashg'ulotlarining onlayn bo'lishi, doim uuda bo'lish o'smirlarning kam harakatlanishiga va kamroq tolib qolishiga sabab bo'ldi va buni esa o'z-o'zidan o'quvchilarning uyqu me'yorlashuviga kichik etiologik omil sifatida qayd etib o'tish mumkin.

**Xulosa.** Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pandemiya maktab o'quvchilari orasida ularning kun tartibi, salomatlik holatida hamda ruhiy rivojlanishida o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, ba'zi o'quvchilarning 11-13 soat uyqu bilan kun qismini aksariyatini o'tkizgani qolaversa o'smirlarning ba'zilari mutlaqo kam, 3-4 soat uyqu fiziologiyasini davom ettirganligi gigiyenik uyquning buzilgaligini namoyon etadi. Bunday holat o'smirlar organizmida noijobiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo pandemiya

davrida o'quvchilarda 41% 7-8 soat, 38% 9-10 soat uyqu fiziologiyasining barqarorlashuvi kuzatilgani normallashgan uyqu fiziologiyasini asosi bo'la oldi. O'smirlarning oila a'zolari bilan birga bo'lish, asosan bolalar va o'smirlar ottona mehrini yanada yaqinroq his qilishi, aynan karantining asosiy ijobjiy taraflaridan bo'ldi. Albatta ushbu burilishlar ularning hayotida ko'plab jarayonlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi, ularning sog'lom, psixologik va jismonan rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

## PURIN VA PIRIMIDIN XALQALARI SAQLAGAN DORIVOR MODDALARING TIBBIYOTDAGI ORNI

Ashurova Nafisa Damirovna

Ilmiy rahbar: dotsent v.d. Nurboyev H.I.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

**Ishning maqsadi:** Pirimidin birikmalarini har xil sharoitda va turli xil erituvchilarda xona temperaturasida yoki qizdirish yo'li bilan fiziologik faol dorivor moddalar olishdan iborat.

**Tekshirish usullari:** Olingan fiziologik faol moddalar o'zining gerbitsitlik, fungitsidlik va bakteritsilik xossalari bilan alohida ajralib turadi. Bu moddalar fizik-kimyoiy usullar IQ, UB, YAMR va Mass-spektroskopiyalarida tahlil qilingan.

**Olingan natijalar:** Pirimidin va purin birikmalarini bilan o'tkazilgan kimyoiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ularning hosilalari tibbiyotda ayrim og'ir patologik kasalliklarni davolashda dorivor preparatlar sifatida hozirda ham qo'llanilib kelmoqda. Podagra kasalligini davolashda pirimidin va purin birikmalarini masalan, allopurinol yaxshi samara bermoqda. Bu kasallikda organizmda siyidik kislitasini sintezi izdan chiqadi (giperurikemiya). Yana tibbiyotda oratatsiduriya deb nomlangan kasallik bo'lib u organizmda pirimidin tanqisligiga bog'liqdir. Bu kasallikda bemorning qonida oratat kislitasining miqdori oshib ketishi

kuzatiladi, bemorda aqliy va jismoniy rivojlanish orqada qoladi. Bu kasalga shifo sifatida pirimidin hosilasi bulmish uridin tabletkasi tavsiya etiladi. Bundan tashqari 5-ftoruratsil esa tibbiyotda ayrim o'sma kasalliklarni davolashda dorivor modda sifatida ishlatiladi. U ayniqsa, miya o'simtasiga qarshi kurashishda ko'proq qo'llaniladi. Pirimidin va purin azot asoslari nuklein kislotalar, nukleozid va nukleotidlarning ham asosini tashkil etadi. Pirimidinni oiladoshi adenin yoki 6-aminopurin ham tibbiyotda keng tarqagan bo'lib, o'simlik va hayvon to'qimalarida mushak, jigar va boshqalarda u erkin holda uchraydi. 6-merkaptopurin og'ir kechayotgan leykozni davolashda ishlatiladi. U shuningdek, revmatoidli artrid surunkali hepatitni davolashda ham dorivor modda sifatida qo'llaniladi.

**Xulosa:** Hozirgi vaqtida pirimidin va purin birikmalarini tibbiyotning barcha sohalarida dorivor moddalar sifatida keng qo'llanilmoxqda. Ularning reaksiyon markazlari ham yaxshi o'rganilmoxqda, hozirda ham O'z.RFA Kimyo institutida bu ishlar davom etmoqda.

## SHIFOBAXSH ZAFARONNING FOYDALI JIHATLARI

Boyxonova Rayhona Sirojiddin qizi

Ilmiy rahbar: t.f.d Xolmurodova Dilafruz Quvvatovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

**Ishning maqsadi:** Zafaronning tibbiyotdagi foydalı tomonlari va qo'llanilishini o'rganish. Xalq tabobatida zafaronning o'rni. Qizil oltin-zafaronning jigar xastaliklarini davolashda, immun tizimini tiklashdagi foydali tomonlarini ko'rib chiqish.

**Tadqiqot material va usullari:** Buyrakdagagi toshlarni tushirish uchun zafaron tolalari yanchilib, asal bilan birga har kuni ikki marotaba iste'mol qilinadi. Peshob yo'llaridagi toshlarni tushirish uchun bir qoshiq quritilgan zafaronga 250-300 ml qaynoq suv quyib, damlama tindiriladi. Har kuni ikki marta ovqatdan oldin ichish maqsadga muvofiq. Jigar xastaliklarida ham zafaron albatta foydalidir. Jigar xastaliklarda o'n dona mayiz, ikki choy qoshiq zafaron 250 ml suvda tindirilib qabul qilinsa va bu bir oy davomida ichib turilsa jigar hujayralarini tiklanishiga, jigarsining filtratsiya qilish xususiyatini ham yanada oshiradi. Kuchli bosh og'riganda yoki qulq shamollaganda zafaron suvi paxta yoki doka bilan ho'llab kasal a'zoga bosilganda barcha og'riqlarni qoldiradi.

**Tadqiqotlar natijalari:** Zafaron nafaqat buyrak va peshob yo'llaridagi toshlarni tushirishga yordam beradi, balki immun tizimini tiklash jarayonlarini faollashtiradi, jigar kasalliklarini bartaraf etadi, xotirani ham yaxshilaydi, ko'z kasalliklarida ham yordam beradi. Zafaron organizmdagi hujayralarini tiklanishiga yordam beradi va hujayralarini oziqlantiradi, terini silliq qiladi, xotira va aqliy faoliyatni yaxshilaydi, kayfiyatni ko'taradi. Zafaron 100 dan ortiq kasalliklarni davolovchi shifobaxsh xossalarga ega. Zafaronning shifobaxshlik xossalari quydagilarni o'z ichiga olgan: qonni

tozalash (qonni yangilaydi va tozalaydi, yurak-qon tomir tizimining mustahkamlovchi va organizmdagi hujayralarni oziqlantirish) xususiyatiga ega, miya faoliyatini aktivligini taminlaydi (bosh miya to'qimalarini o'stridi, xotirani yaxshilaydi), bosh aylanishi, bosh o'riqlarini to'xtatish xususiyatiga ega. Zafaron damlamasi oshqozon-ichak faoliyatini ham meyorga keltiradi, ko'rish qobiliyatini tiklaydi. Terining kuygan va shish paydo bo'lish holatlarida ularni davolaydi. Nafaqat zafaron damlamasi balki zafaronning gulini hidlash ham organizmga foydalidir. Agar zafaron guli hidlansa insonning nafas olish organlariga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, tinchlaniradi va uyqusizlikda yordam beradi. Bundan tashqari zafaron qorinning ochish hissini ham kamaytiradi. Zafaronni kosmetikada ham qo'llash mumkin undan terini silliq va yoshartiruvchi vositalar tayyorlashda foydalanish mumkin

**Xulosa:** Qadim zamonlardan ma'lumki zafaron nodir va bemisl xususiyatga ega shifobaxsh o'simlikdir. U og'riq qoldiruvchi, quvonch va xursandchilik baxsh etuvchi, tushkunlikdan chiqaruvchi, quvonch gormoni - serotonin ishlab chiqarish xususiyatiga ega o'simlikdir. Shunday qilib zafaron - inson doimiy iste'mol qilisga o'rganib qolmaydigan, yengil moddadir. Zamonaviy tibbiyotda zafaron ko'zga tomiziladigan dori tayyorlashda va umumiyy quvvatlantiruvchi turli dori darmonlar tayyorlashda ishlatiladi. U qaynoq sut bilan ichilsa bosh miya faoliyatini tiklab, xotirani ham yaxshilashi aniqlangan. Agar asal bilan iste'mol qilinsa, buyrakdagagi toshlarni maydalanishiga ham yordam beradi. Xalq tabobatida zafaronning choyi nafas yo'llari kasalliklarini